



**ИНВЕСТИЦИОННОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И
КИТАЯ: ГЕОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА, БАЛАНС ВЫГОД И
РИСКОВ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ИМПЛИКАЦИИ**

**O‘ZBEKISTON–XITOIY INVESTITSION HAMKORLIGI:
GEOIQTISODIY BAHOLASH, FOYDA–XATARLAR MUVOZANATI VA
SIYOSIY IMPLIKATSIYALAR**

**UZBEKISTAN–CHINA INVESTMENT COOPERATION:
GEOECONOMIC ASSESSMENT, BALANCE OF BENEFITS AND RISKS,
AND POLITICAL IMPLICATIONS**

Mamadaliyeva M¹

(Namangan Davlat universiteti, O‘zbekiston)

***Annotatsiya.** Maqola O‘zbekiston–Xitoy investitsion hamkorligini Markaziy Osiyo kontekstida tashqi qarz indikatorlari — tashqi qarz/YAIM, qarz xizmati/eksport, valyuta tarkibi va muddat profili — bilan uzviy bog‘liq holda baholaydi. Foyda yo‘nalishlari sifatida infratuzilmaning modernizatsiyasi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, eksport-logistika zanjirlarining rivoji hamda texnologiya va ko‘nikmalar transferi ko‘rsatiladi. Xatarlar qatoriga qarz barqarorligining susayishi, valyuta nomuvofiqligi, qayta moliyalash xavfi, DXSh (davlat-xususiy sheriklik) bitimlaridagi yashirin majburiyatlar va ijtimoiy-ekologik risklar kiradi. Rivojlantirish bo‘yicha amaliy yechimlar sifatida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, shaffof prokurement (xarid jarayonlari) va*

Mamadaliyeva Mahbuba Turg'unpolot qizi— Namangan davlat universiteti Geografiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrası magistratura 1-bosqich talabasi. E-mail: mahbubamamadaliyeva1@gmail.com



mustaqil auditni kuchaytirish, mahalliy kontent hamda texnologiya transferi bo'yicha majburiy me'yorlarni joriy etish, shuningdek mintaqaviy logistika kooperatsiyasini chuqurlashtirish taklif etiladi.

Аннотация. *Статья оценивает инвестиционное сотрудничество Узбекистана и Китая в контексте Центральной Азии в тесной связи с индикаторами внешнего долга — внешний долг/ВВП, обслуживание долга/экспорт, валютная структура и сроковая структура долга. К числу преимуществ отнесены модернизация инфраструктуры, расширение производственных мощностей, развитие экспортно-логистических цепочек, а также трансфер технологий и компетенций. К рискам отнесены ослабление долговой устойчивости, валютные несоответствия, риск рефинансирования, скрытые обязательства в рамках соглашений государственно-частного партнёрства (ГЧП), а также социально-экологические риски. В качестве практических решений предлагаются диверсификация источников финансирования, усиление прозрачности закупочных процедур (procurement) и независимого аудита, введение обязательных норм по локальному содержанию и трансферу технологий, а также углубление региональной логистической кооперации.*

Annotation. *The article assesses Uzbekistan–China investment cooperation in the Central Asian context in close connection with external-debt indicators—external debt/GDP, debt service/exports, the currency composition of debt, and its maturity profile. Benefits are identified as infrastructure modernization, expansion of productive capacity, development of export–logistics chains, and the transfer of technology and skills. Risks include weakening debt sustainability, currency mismatches, refinancing risk, hidden contingent liabilities within public–private partnership (PPP) agreements, and socio-environmental risks. As practical measures, the study proposes diversifying financing sources, strengthening transparency in procurement and independent auditing, introducing mandatory*



requirements for local content and technology transfer, and deepening regional logistics cooperation.

Kalit soʻzlar: *Oʻzbekiston–Xitoy hamkorligi; Markaziy Osiyo; tashqi qarz; qarz barqarorligi; tashqi qarz/YAIM; qarz xizmati/eksport; valyuta nomuvofiqligi; qayta moliyalash xatari; DXSh/PPP; infratuzilma modernizatsiyasi; texnologiya transferi; mahalliy kontent; prokurement shaffofligi; mustaqil audit; ESG; mintaqaviy logistika kooperatsiyasi.*

Ключевые слова: *Сотрудничество Узбекистан–Китай; Центральная Азия; внешний долг; долговая устойчивость; долг/ВВП; обслуживание долга/экспорт; валютные несоответствия; риск рефинансирования; ГЧП/PPP; модернизация инфраструктуры; трансфер технологий; локальное содержание; прозрачность закупок; независимый аудит; ESG; региональная логистическая кооперация.*

Keywords: *Uzbekistan–China cooperation; Central Asia; external debt; debt sustainability; debt/GDP; debt service/exports; currency mismatches; refinancing risk; PPP; infrastructure modernization; technology transfer; local content; procurement transparency; independent audit; ESG; regional logistics cooperation.*

Kirish qismi: Global taʼminot zanjirlari qayta konfiguratsiya qilinayotgan bir vaqtda Oʻzbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish va tarkibiy islohotlar chet el investitsiyalarini, xususan Xitoy kapitalini jalb etish bilan bevosita bogʻliq boʻlib bormoqda. Oʻzbekiston–Xitoy investitsion hamkorligi sanoatlashtirish, transport–energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, qarz barqarorligi, valyuta xatarlari, texnologik qaramlik, ekologik va ijtimoiy (ESG) meʼyorlar boʻyicha majburiyatlar mazkur hamkorlikning barqaror samarasini belgilovchi omillar sifatida namoyon boʻlmoqda. Ushbu tadqiqot Oʻzbekiston–Xitoy investitsion oqimlarining tarmoq tuzilmasi va dinamikasini, ularning makroiqtisodiy hamda geoiqtisodiy taʼsirini



“foyda–xatarlar muvozanati” yondashuvi asosida baholaydi. Ilmiy maqola bosh g’oyasi sifatida – qiymat zanjiri lokalizatsiyasi, qarz barqarorligi va ESG (Environmental, Social, Governance) talablari integratsiyasiga tayangan kompleks baholash ramkasini taklif etishdan iborat; amaliy ahamiyati esa siyosat ishlab chiquvchilar uchun mahalliyashtirish, risklarni boshqarish va shaffof monitoring bo’yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishda ko‘mak berishidadir.

O‘zbekiston – Xitoy aloqalarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, bu ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy yo‘nalishdagi hamkorlik muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda Xitoy investitsiyalari salmog‘i barqaror ortib bormoqda. Ayni kunda ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar deyarli barcha sohalarda, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, xavfsizlik, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-madaniy, fan va ta‘lim, sport, gumanitar soha kabi ko‘plab sohalarda rivojlanmoqda. Shu bilan bir qatorda energetika, neft-gaz, hamda, transport, kommunikatsiya va informatsion sohalarda ham o‘zaro hamkorlik jadal suratlarda rivojlanib bormoqda. Mamlakatlarimiz mazkur sohalarda hamkorlikda manfaatli loyihalarni amalga oshirib, samarali natijalarga erishmoqda [1;10-b.].

Maqsad va vazifalar. Ushbu maqola O‘zbekistonda Xitoy investitsiyalari va biznesi ta’sirining ortishini hamda uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qiladi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Xitoy investitsiyalarini ortishini ijobiy va salbiy jihatlarini o‘rganib chiqish va tahlil qilish;
- savdo aylanmasi, tashqi qarz/YAIM va valyuta xatarlari indikatorlari asosida O‘zbekiston–Xitoy hamkorligining geoiqtisodiy risklarini kompleks baholash;
- infratuzilma loyihalari (transport–energetika) doirasida texnologiya transferi va mahalliyashtirish darajasini aniqlash, ESG mezonlari bo’yicha



ijtimoiy-ekologik ta'sirni baholash hamda aniq siyosat tavsiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi

Asosiy qism: O'zbekiston–Xitoy hamkorligining zamonaviy bosqichi 1992-yil 2-yanvar O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan kunlardan boshlandi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi yani *“Buyuk ipak yoli”* davridan bugungi kunda hozirgi bosqichda samarali, o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mintaqalarni bog'lab turgan, o'zaro hamkorlik va madaniy almashinuvga turtki bo'lgan qadimiy Ipak yo'li bugungi kunda yangicha ahamiyat kasb etib transport kamunikatsiya sohasi o'zini *“dengizdan chiqmaydigan mamalakatdan”* dan *“quruqlik bilan bog'langan mamlakat”*ga aylantirilmoqda. Mazkur tashabbus bilan birgalikda O'zbekistonda Xitoylik hamkorlar bilan birgalikda butun Markaziy Osiyoda eng uzun tunelga ega bo'lgan *“Angren -Pop”* temiryo'l liniyasi qurildi. *“Xitoy -Qirg'iziston -O'zbekiston”* Gaz quvurining to'rta yo'nalishi ham O'zbekiston hududidan o'tishi bunga misol bo'la oladi.[2]

Ta'kidlash joizki, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2024-yilda 94,8 mlrd dollarni tashkil etdi. Mintaqa mamlakatlari ichida Xitoy bilan tovar ayirboshlashda Qozog'iston yetakchi bo'lib, uning ulushi 46% yoki 43,8 mlrd dollarni tashkil etdi. Qolgan hajm quyidagicha taqsimlandi: Qirg'iziston – 22,7 mlrd dollar (24%), O'zbekiston – 13,7 mlrd dollar (14,5%), Turkmaniston – 10,6 mlrd dollar (11%), Tojikiston – 3,8 mlrd dollar (4%) [3].


2024-yilda Qozog'istonning Xitoy Eksport-import banki (Eximbank) oldidagi qarzi 9,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, YaIMning 3,5 foiziga teng bo'ldi; ko'rsatkich oxirgi uch yilda nisbatan barqaror saqlanmoqda. Tojikistonning tashqi qarzi qariyb 3,3 mlrd dollar bo'lib, uning taxminan yarmi Xitoyga to'g'ri keladi va YaIMning 27,0 foizini tashkil etadi. Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-



yil boshida Tojikistonning Xitoy oldidagi aniq qarzi 900 mln dollarga teng bo'lib, bu umumiy tashqi qarzning 27,8 foizi; demakki, Xitoy mamlakatning asosiy kreditori sanaladi. 2023-yil oxirida O'zbekistonning Xitoyga bo'lgan qarzi 3,775 mlrd dollar (umumiy tashqi qarzning $\approx 13\%$). 2022-yilda esa Xitoy Taraqqiyot banki (CDB) ushbu qarzning 2,2 mlrd dollariga egalik qilib, O'zbekistonning uchinchi yirik kreditoriga aylangan. Qirg'izistonning Xitoyga qarzdorligi qariyb 4 mlrd dollar (YAIMning 40%); bu jon boshiga taxminan 700 dollar to'g'ri keladi. Ikki tomonlama imtiyozli kreditlar 2 mlrd dollardan ortiq (44%), ularning 36,7 foizi Xitoy Eximbankiga to'g'ri keladi (2023-yilda 1,7 mlrd dollar) [4].

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi 30 yil ichida Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi qariyb 100 barobarga oshgan. Xalqaro amaliyotda tashqi qarzning YAIMga nisbati bo'yicha quyidagi mezonlar qo'llanadi: 0–30% – past yuklama (O'zbekiston va Turkmaniston nisbatan xavfsiz zonada bo'lib, investorlar uchun ijobiy signal); 30–50% – o'rtacha daraja (Qirg'iziston va Tojikiston misolida qarz va YAIM balansini ehtiyotkor boshqarish talab etiladi); 50–70% – yuqori daraja (xatarlar ortadi, biroq ba'zi rivojlangan mamlakatlar bunday darajaga bardosh bera oladi); 70%dan yuqori – tashqi qarz inqirozi xavfi kuchayadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun 30–40% oralig'i odatda optimal koridor sifatida qaraladi.

Markaziy Osiyo: YAIM va davlat qarzi (2024). Qarz ko'rsatkichi faqat Xitoyga emas, balki barcha mamlakatlardan olingan qarzlarning yig'indisini bildiradi. (1-rasm) [5].



1-rasm . Markaziy Osiyo davlatlarini yalpi ichki mahsulotlari va davlat qarzi [5].

Statistik tahlilga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasida eng katta YAIM ham, eng katta davlat qarzi ham Qozog'istonga to'g'ri keladi (YAIM – 259,3 mlrd \$, qarzi – 105 mlrd \$). Eng past ko'rsatkichlar Tojikistonda: YAIM – 10,8 mlrd \$, qarzi – 3,6 mlrd \$. O'zbekiston ikkinchi o'rinda (YAIM – 101,6 mlrd \$, qarzi – 34,9 mlrd \$). Qo'shimcha ravishda, qarzi/YAIM nisbatlari shunday: Qirg'iziston – 47,6%, Qozog'iston – 40,5%, O'zbekiston – 34,4%, Tojikiston – 33,3%, Turkmaniston – 5,5%.

Xitoy kapitalining Markaziy Osiyoga kirib kelishi – imkoniyatmi yoki tahdidmi? Savol o'rinli, chunki so'nggi yillarda Xitoy sarmoyalari ko'plab tarmoqlarda faollashdi, biroq mintaqaga faqat Xitoy emas, boshqa davlatlar ham salmoqli investitsiyalar kiritmoqda. Taqqoslash uchun, Misr va Xitoy o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1950-yillardan boshlangan; Misr 1956-yilda XXR bilan diplomatik munosabat o'rnatgan birinchi arab va Afrika davlati bo'lgan. Hozirgi



kunda Misrning Xitoyga to'lanmagan qarzi qariyb 8 mlrd \$ bo'lib, umumiy tashqi qarz ($\approx 155,7$ mlrd \$) ning taxminan 5% iga teng.[6] Misr YAIMi ≈ 396 mlrd \$, tashqi qarzining YAIMga nisbati $\approx 39\%$; Xitoyga bo'lgan qarzning YAIMdagi ulushi hisob-kitobga ko'ra $\approx 2\%$ ni tashkil etadi.[7] Bu holat investitsiyalarni infratuzilma va sanoatga samarali yo'naltirish orqali ijobiy natijalar olish mumkinligini ko'rsatadi; shu bilan birga qarz boshqaruvi va fiskal risklarni institutsional nazorat ostida ushlash zarurligini ham tasdiqlaydi.

Shri-Lanka davlatida YaIM (nominal) (2023) 84,35 milliart dollorni tashkil etgan.[8] Shu vaqtda davlatning tashqi qarzi esa 61,7 mlrd AQSh dollariga teng bo'lib, bu tashqi qarzning YaIMga nisbati 73% ga teng.[9]. Ushbu qarzning 7,4 mlrd AQSh dollari Xitoy ulushiga to'g'ri keladi (umumiy tashqi qarzning qariyb 12 foizi) [10]. Keltirilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Xitoy kapitali ishtirokidagi loyihalar qisqa muddatda infratuzilma rivojini jadallashtirgan bo'lsa-da, rejalashtirishdagi kamchiliklar va iqtisodiyotning zaifliklari sabab moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, tashqi qarzning YAIMga nisbati yuqori darajada saqlanib qolmoqda va qarz barqarorligi nuqtayi nazaridan ogohlantiruvchi tendensiyanı namoyon etadi.

Tabiiy holda savol tug'iladi – Xitoy kiritayotgan investitsiyalar imkoniyatmi yoki tahdid? Bu, albatta, imkoniyat bilan birgalikda ma'lum darajada tahdid hisoblanadi. Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat tashqi qarziuning YAIM ga nisbatan barqaror ketishi mumkin. Nafaqat Xitoy balki, boshqa xorijiy davlatlar kiritayotgan investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish, avvalo sarmoya kiritayotgan investor bilan kelishuvda mamlakat manfaatlarini hisobga olish lozim. Binobarin, kiritalayotgan yangi texnologiyalarni o'rganish va texnologiyalardan foydalanish zarur. Xitoy investitsiyalar bilan birgalikda yangi texnologiyalar va soha mutahasislari yani ishchi kuchini ham olib keladi. Darhaqiqat, mahaliy ishchi kuchi ham shu investitsion loyihalarda ishtirok etishi yani ular bilan birga ishlashni maqsadga muvofiq. Natijada, ishsizlik kamayadi va yangi texnologiyalar loyihalar



bo'yicha tajriba ortadi. Xitoy kiritayotgan investitsiyalarni ko'payishi iqtisodiyotni o'sishini va infratuzilmalarni rivojlanishi Eksport va savdo hajmining ortishi mingtaqaviy integratsiya va strategik hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yilda Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrif buyurib, Rais Si Szinpin bilan muzokaralar o'tkazdi. Uchrashuv yakunida ikki davlat o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklikni yanada boyitishga qaratilgan qator shartnomalar va hujjatlar imzolandi. Tashrif natijasida sheriklik "har qanday ob-havo" strategik darajasiga ko'tardi; bu esa texnologiya va infratuzilma kabi yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish hamda ikki tomonlama savdoni oshirish orqali o'zaro aloqalarni chuqurlashtirdi. 2000-yildan buyon O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tovar ayirboshlash izchil o'sib, 2024-yilda 13,1 mlrd AQSh dollariga yetdi; bu O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasining qariyb 19 foizini tashkil etadi [11].

Xitoy investitsiyalari yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjudlarini kengaytirishga xizmat qilib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Sarmoyalarning salmoqli qismi transport, energetika va telekommunikatsiya tarmoqlariga yo'naltirilgani bois, infratuzilma yaxshilanadi va mamlakat raqobatbardoshligi ortadi; jumladan, temiryo'l va avtomobil yo'llari, logistika tugunlari hamda sanoat parklari barpo etiladi. Biroq salbiy jihatlar ham bor: tashqi qarz yukining ortishi, atrof-muhitga yetishi mumkin bo'lgan zarar, ijtimoiy-madaniy ziddiyatlar hamda siyosiy ta'sirlarning kuchayishi kabi risklar ma'lum darajada oshishi ehtimoli mavjud.

Xitoy diasporasining Markaziy Osiyoda kengayishi ma'lum darajada salbiy oqibatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Qozog'iston misolida ko'radigan bo'lsak, ayrim baholashlarga ko'ra hozirda mamlakatda taxminan 500 ming nafar xitoylik istiqomat qiladi; keyingi 20 yillik istiqbolda bu son uch baravar oshib, eng yirik diaspora guruhiga aylanish ehtimoli mavjud. Bu esa, o'z navbatida, assimilyatsiya jarayonlarini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.



Shu bilan birga, mintaqada qazilma boyliklarni o'zlashtirishda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) kompaniyalarining roli ortib bormoqda. Keltirilgan manbaga ko'ra, bugungi kunda Qozog'istonning neft-gaz sohasining 30 foizi, Qirg'izistonning oltin qazib olish sohasining 70 foizi va Tojikistonning oltin qazib olish sohasining 80 foizi xitoylik kompaniyalar nazoratiga o'tgan [12].

Xulosa. Xitoy investitsiyalari ortishi — avvalo imkoniyat; undan to'g'ri va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Iqtisodiyot tarmoqlari zamonaviy innovatsion texnologiyalar va malakali mutaxassislariga muhtoj, buning uchun esa sarmoya zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, investitsiya oqimlarini ustuvor sohalarga oqilona yo'naltirish iqtisodiyotni rivojlantiradi va YAIM hajmini oshiradi. Shu bois, biz ham sarmoyalardan maksimal darajada foydalanib, tahliliy hisobotlarni aniq va shaffof yuritishimiz lozim: xoriждан kelgan investitsiyalar qaysi tarmoqlarga qancha yo'naltirildi? Qanchasi texnologiyaga, qanchasi ishchi kuchiga sarflandi? Necha kishi ish bilan ta'minlandi? Bu savollarga ishonchli, solishtiriladigan ma'lumotlar bilan javob berish kerak. Afsuski, ko'plab manbalarda mablag'larning aniq yo'naltirilishi bo'yicha ma'lumotlar kam yoki o'zaro nomuvofiq. Xulosa qilib aytganda, investitsiya — imkoniyat; u tahdid emas, biroq faqat shaffof boshqaruv va oqilona taqsimot sharoitida yuqori natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аминов Х. Б. Ўзбекистон Республикаси ва Хитой Халқ Республикаси ўртасидаги сиёсий-иқтисодий ва маданий алоқалар // с.ф.н. илмий дар.олиш учун тақдим эт. дисс. — Урганч, 2017. —181 б.

Internet saytlari

2. Online axborot sayti. URL

https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/ozbekistonxitoy_uzoq_asrlarga_taq_aladigan_ozaro_bogliqlik_zamonaviy_hamkorlikning_muvaffaqiyatli_omili.html



3. Online axborot sayti. URL <https://en.orda.kz/chinas-trade-with-central-asia-hits-948-billion-in-2024-4874>
4. Online axborot sayti. URL <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13823-chinas-debt-trap-diplomacy-in-central-asia>
5. Online axborot sayti. URL <https://daryo.uz/PDVgF0VT/>
6. Online axborot sayti. URL <https://arabcenterdc.org/resource/egypts-strategic-partnership-with-china-opportunities-and-implications>
7. Online axborot sayti. URL <https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/egy/egypt/gdp-gross-domestic-product>
8. <https://srv1.worldometers.info/gdp/sri-lanka-gdp/>
9. Online axborot sayti. URL <https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/lka/sri-lanka/external-debt-stock> .
10. Online axborot sayti. URL <https://www.reuters.com/world/asia-pacific/sri-lankas-debt-china-close-20-public-external-debt-study-2022-11-30>
11. Online axborot sayti. URL <https://share.google/W793UcnQuWeYGmMHC>
12. Online axborot sayti. URL <https://kun.uz/news/2024/09/03/markaziy-osiyoda-xitoy-diasporasi-katta-suratlarda-oshmoqda-ekspert>